
Turkiyaning "Antepfıstığı Araştırma Enstitüsü Müdürlüğü" pistachilik instituti va Rishton tumanining "Gold gardens avitssena" korxonasi o'rtasida hamkorlik aloqalari o'rnatildi

Rishton tumani hokimi Sufhonjon Soliev boshchiligidagi rasmiylar va tadbirkorlardan iborat tuman delegatsiyasi to'g'ridan-to'g'ri hamkorlik aloqalari o'rnatish maqsadida Turkiyaga qilgan tashrifi yakuniga yetdi.

Delegatsiya a'zolari kecha Gaziantep viloyatining Gaziantep shahridagi "Antepfıstığı Araştırma Enstitüsü Müdürlüğü" pistachilik instituti bilan Rishton tumani "Gold gardens avitssena" bilan hamkorlikda pistachilikni rivojlantirish, plantatsiyalarni kengaytirish borasida kelishuvga erishildi. Imzolangan kelishuvga ko'ra, sentyabr oyida "Antepfıstığı Araştırma Enstitüsü Müdürlüğü" pistachilik instituti vakillari Rishton tumaniga tashrif buyurishi rejalantirildi.

Tashrif davomida turkiyaliklar o'z tajribalari bilan o'rtoqlashish va o'zlari tomonidan yetishtirgan ko'chatlarni yurtimiz iqlimiga moslashtirish ishlarni amalga oshirish borasida ham memorandum imzolandi.

2022-06-27 18:16:52